




ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



THE ISSUE OF AUTHORIAL EDITING IN LYRIC POETRY

Mukhayyo Mukhammadiyevna Raykhonova

PhD, Associate Professor

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: authorial revision, literary text, textual studies, creative process, political censorship, philology, literary evolution.

Received: 05.12.25

Accepted: 06.12.25

Published: 07.12.25

Abstract: This article examines the issue of authorial revision as a complex and multifaceted phenomenon in lyric poetry. It emphasizes that the process of authorial editing plays a crucial role in the artistic maturation and refinement of a literary work. The study analyzes challenges encountered when identifying authorial revisions in classical literature, such as the interference of scribes, political pressures, shifts in the author's personal views, and the impact of socio-spiritual contexts. Instances in which writers reworked their texts at different stages of their lives, as well as the implications of these revisions for art, truth, and historical authenticity, are evaluated from a scholarly and theoretical perspective.

LIRIKADA MUALLIF TAHRIRI MASALASI

Muxayyo Muxammadiyevna Rayxonova

Phd, QarshiDU dotsenti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: muallif tahriri, badiiy matn, matnshunoslik, ijod jarayoni, siyosiy senzura, tekstologiya, adabiy evolyusiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif tahriri masalasi she'riyatning murakkab va ko'p qirrali muammosi sifatida yoritiladi. Badiiy matn ijodida muallif tahriri jarayoni asarning badiiyat jihatdan pishib yetilishi, takomillashuvi uchun muhim bosqich ekani ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotda muallif tahririni aniqlashda duch kelinadigan muammolar, kotiblar aralashuvi, siyosiy bosimlar, shaxsiy pozitsiyalarning o'zgarishi,

ijtimoiy-ma'naviy sharoitlarning ta'siri misollar asosida tahlil etiladi. Adiblarning turli davrlarda asarlari ustida qayta ishlagan hollari, bu holatlarning san'atga, haqiqatga va tarixiylikka munosabati ilmiy-nazariy jihatdan baholanadi.

ПРОБЛЕМА АВТОРСКОЙ РЕДАКЦИИ В ЛИРИКЕ

Мухайё Мухаммадиевна Райхонова

*PhD, доцент Каршинского государственного университета
Карши, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: авторская редакция, художественный текст, текстология, творческий процесс, политическая цензура, литературоведение, литературная эволюция.

Аннотация: В данной статье проблема авторской редакции рассматривается как сложное и многогранное явление лирики. Подчеркивается, что процесс авторской правки художественного текста является важным этапом в художественном совершенствовании и созревании произведения. Анализируются трудности, возникающие при выявлении авторской редакции в классической литературе, в том числе вмешательство переписчиков, политическое давление, изменение личных взглядов автора, влияние социально-духовных условий. Научно-теоретически оцениваются случаи, когда писатели в разные периоды своей жизни возвращались к собственным произведениям и вносили о'zgarishlar, а также их отношение к искусству, истине и историчности.

Kirish. Badiiy asar, ayniqsa, she'r ilhom deb atalgan ma'lum muddatlik ayricha ruhiy holat natijasida dunyoga keladi, lekin o'quvchiga qoralama maqomidagi dastlabki variantda taqdim etilmaydi. Ilhom onlaridan keyin tahrir bosqichi boshlanadi. Tahrir natijasida ba'zan matn butunlay o'zgarib ketishi ham mumkin; ammo boshlang'ich javhar, g'oyaviy-badiiy asos, ba'zan obrazlar saqlanib qoladi – bu borada ijodkorlar ham, adabiyotshunoslar ham yakdil.

Muallif tahriri – badiiy ijod jarayonining ajralmas qismi. Hatto turkiy adabiyotning buyuk namoyandasi Alisher Navoiy ham badiiy matn ustida ishlaganligi faktlari muayyan darajada ma'lum. To'g'ri, mumtoz adabiyot misolida muallif tahriri haqida so'z yuritish hamma vaqt ham mumkin bo'lavermaydi. Chunki o'tmishda yashab o'tgan ijodkorlarga tegishli qoralamalar bizgacha deyarli yetib kelmagan; qo'lyozma devonlardagi o'zgartirishlar esa har doim muallifga tegishli bo'lmay, kotiblar ham matnni ba'zan o'zlaricha tahrirlab ketaverganlar; ba'zan xato

ko‘chirganlar. Ana shu holatlar muallif tahriri muammosini mumtoz adabiy matnlar materialida tadqiq qilishni qiyinlashtiradi.

“Ijod laboratoriyasi” degan tushuncha milliy adabiyotshunoslikka XX asrda kirib kelgan. Muayyan asarning turli qoralama variantlarini chog‘ishtirish, shu asosda badiiy matn yo shoir-yozuvchi ijodi tadriji, uslubini tadqiq etish ham zamonaviy so‘z ilmiga daxldor hodisa .

Muallif tahriri ijobiy hodisa ekanligiga shubha yo‘q. Badiiy asar ayni jarayonda takomil topadi, pishadi, san‘at qonunlariga maksimal darajada moslashtiriladi. Ulug‘ rus yozuvchisi L. Tolstoyning “Anna Karenina” romanini o‘nlab marta tahrirlab-ko‘chirgani, o‘zbek adibi Abdulla Qahhorning matndagi bitta so‘z o‘zgarsa ham butun matnni qayta ko‘chirgani faktlari ma‘lum. Biroq muallif tahriri masalasining boshqa nozik jihatlari ham bor. Birinchidan, tahrir hamma vaqt ham muvaffaqiyatli chiqmasligi, badiiy asr ilk yaratilishdagi tabiiyligi, jozibasidan mahrum bo‘lib qolishi, zo‘rma-zo‘rakilik paydo bo‘lishi ham mumkin. Ijodkor asarni g‘oyaviy-badiiy jihatdan takomilga yetkazaman deb ortiqcha “shishirishi”, turli fikrlarni, tasviriy vositalarni o‘rinli-noo‘rin qurab qo‘yishi ham hech gapmas. Ta‘bir joiz bo‘lsa, qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarish muallif tahriri hodisasiga ham xos. Bunda ham ishning muvaffaqiyatini pirovardida ijodkorning iste‘dodi hal qiladi.

Adabiyot tarixi tashqi ta‘sir natijasida – biror kishining fikr-taklifi yoki muayyan (masalan, siyosiy) bosim tufayli, ilojsizlikdan amalga oshirilgan tahrirlarni ham biladi. Masalan, “Olomonga” she‘rida Abdulla Oripov “Cho‘lpon otilganda qayoqda eding?” degan dastlabki variantni o‘zgartirib, she‘riy to‘plamlariga “Lorka otilganda qayoqda eding?” shaklida kiritgan. Buning sababi ma‘lum: she‘r yozilgan 1980 yilda jadidlarning hammasini emas, Fitrat va Cho‘lponga nisbatan hali norasmiy ta‘qiq bor edi. M. Bulgakovning “Usta va Margarita”, Abdulla Qahhorning “Sarob” romanlari ham siyosiy vaziyat bois turli variantlarda yozilgan. Chingiz Aytmatov o‘z vaqtida majburiy tahrirga uchragan “Asrga tatigulik kun” romanidan olib tashlangan “Chingizxonning oq buluti” bo‘limini sho‘ro Ittifoqi parchalangandan keyin “Roman uchun qissa” nomi bilan chop ettirdi. “Yuzma-yuz” qissasidan olib tashlangan qismlar ham sho‘ro davlati barham topgandan keyin asar matniga kiritildi.

Muallif tahririga oid yana bir nozik nuqta bor: asarni muayyan maqsad bilan atay o‘zgartirish. Adabiyotshunos R.Rahmat feysbuk ijtimoiy tarmog‘ida Rauf Parfining 1996-yillarda bir qator omillar ta‘sirida ayrim (hatto ishqiy mavzudagi) she‘rlarida ba‘zi so‘zlarni “Turon”, “Turkiston” so‘zlariga almashtirgani haqida yozgan edi (2014-yil 7-yanvar) . Masalan, “Jigarbandim, ko‘zim yo‘lingda” satri “Oh, Turkiston, ko‘zim yo‘lingda” deb, “Go‘zallarning go‘zali – onang” esa “Go‘zallarning go‘zali – Turon” shaklida o‘zgartirilgan (1965-yilda yozilgan, 1996-yilda tahrir qilingan) ekan. Professor N.Rahimjonov tomonidan “Sakina” kitobida berilgan “Izohlar”da “Aks-sado” (1970) to‘plamidan olingan she‘rlarning nomlari keltiriladi, ular ichida

“Jigarbandim, ko‘zing yo‘lingda” ham bor ; lekin xuddi shu to‘plamning o‘zida o‘sha misralar “Oh, Turkiston, ko‘zim yo‘lingda... Go‘zallarning go‘zali – Turon” shaklida o‘zgargan variantda keladi . Professor N.Rahimjonovning “Ko‘p she‘rlardan Rauf Parfining ko‘ngli to‘lmasdi. Shu bois aksar asarlarini qayta-qayta nigohidan o‘tkazgan, “loyini” obdan pishitib, keyin ushbu majmuaga jamlagan edi” degan umumiy izohi bor, ammo tekstologik tadqiqot maqomidagi izohlarda aniq fakt, ma‘lumotlar yetishmaydi. Faqat yuqoridagi she‘r misolida olganda ham, “jigarbandim”, “onang” so‘zining nega “Turkiston”, “Turon”ga almashtirilganligi mavhum bo‘lib qolaveradi.

R. Rahmat R. Parfi uning ko‘z o‘ngida she‘rlarini o‘zgartirganini yozgan; shu va shunga o‘xshash tahrirlarning taxminiy sababini ham aytgan. U yozadi: “Shoir shaxsiy intim kechinmalari aks etgan she‘rlariga ham “Turkiston”, “Turon” degan so‘zlarni tiqishtiravergan. O‘sha 1996-yillarda bunaqa “buzg‘unchi”liklarni ko‘rib “Rauf aka, endi she‘rlarizi (muallif imlosi saqlandi – M.R.) o‘zingizdan himoya qilish kerak” degandim. Hozir eslasam, Rauf aka 1990-yillarda Turkiyaga turkiy xalqlar she‘riyati anjumaniga borgan edi. O‘sha anjumanda o‘zini turkiyparast shoir deya taqdim qilish uchun tayyor she‘rlarini osongina o‘zgartirib oldimikan...”

To‘g‘ri, bu o‘rinda “ijtimoiy tarmoqdagi gaplar ilmiy qimmatga ega emas” qabilida e‘tiroz bildirilishi tayin. Ayni vaqtda, istaymizmi-istamaymizmi, tan olishga majburiymizki, biror-bir ilmiy fikr-mulohaza, fakt yo ma‘lumot ijtimoiy tarmoqda aytilgani uchungina uni chetga surib qo‘yishga haqqimiz yo‘q. Kitob, gazeta-jurnal, teatr, kinoteatr, televizor, konsert dasturlari kabilar muayyan darajada internetga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan XXI asrda olimlar ham fundamental tadqiqot darajasiga yetmagan ilmiy fikr-mulohaza, turli gipotezalarni ijtimoiy tarmoqlarda post sifatida yozayotganlari, salmoqli tadqiqotlarini internet orqali ommalashtirayotganlarini rad etib bo‘lmaydi. Bir yildan ortiq vaqtdan buyon davom etayotgan pandemiya ham bu masalada qarashlarni keskin o‘zgartirdi.

“Bizga asliyat kerak, o‘zgartirilgan variant emas”, deydi R. Rahmat. Bu fikr faqat yuqoridagi kontekstda o‘rinli, umumiy holatda esa munozarali, albatta. Chunki matnni san‘at talabi bilan mukammallashtirish maqsadida amalga oshirilgan tahrir badiiy ijod qonuniyatlariga muvofiqdir. Umuman, muallifning asarni o‘z qo‘li bilan o‘zgartirganligi qo‘lyozmalar, guvohlar bilan isbotlangan taqdirda ham, ijodkorning o‘zi biror izoh yo qayd yozib qoldirmagan bo‘lsa, tahrirning sababini faqat taxmin qilish mumkin. Hatto o‘sha xil qaydu izohlar ham haqiqatni to‘la aks ettiradi, deb bo‘lmaydi.

Kommunistik mafkuraning asl mohiyati ko‘pchilikka qisman sho‘ro davlati barham topishi arafasida va qisman undan keyin ayon bo‘ldi. XX asrning 60-yillaridayoq Cho‘lpon asarlarini chop ettirgan Ozod Sharafiddinov kabi qat‘iyatli olim “E‘tiqodimni nega o‘zgartirdim?” degan iqroynoma bilan chiqdi. SHo‘roni yoppasiga qoralash kompaniyasi boshlanib ketdi. Yillar

davomida o‘zlari ishonib yurgan ijtimoiy ideal sarob ekani ahli ijodga ham kunday ravshan bo‘ldi. Badiiy adabiyotda yaqin o‘tmishni keskin fosh qilish ruhi kuchaydi. Shoir-yozuvchilar mustaqillik yillarida chop etilgan kitoblaridan sho‘ro mavzusidagi asarlarini chiqarib tashladilar. Shu qizg‘in jarayonlarda yana bir tajriba avj oldi: ular o‘z asarlaridagi komfirqa, Lenin, inqilob, sho‘roga oid timsollaru parchalarni, umuman, shu va shu kabi so‘zlarni tahrir qildilar. Masalan, Abdulla Oripovning 1969 yilda yozilgan “Lenin” nomli she‘ri (Oripov A. Yillar armoni. Toshkent, Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1987. – 206-207 betlar) shoirning tanlangan asarlariga “Haqiqat yo‘llari” nomi bilan (Oripov A. Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent, G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – 165-166 betlar) kiritildi. Faqat oxirgi misrasidagina sho‘ro dohiysining nomi qayd etilgan kuchli falsafiy she‘rda tarix paradokslari haqida so‘z boradi. 28 yoshli shoir avval-boshdanoq “Yosh idrokim zamonlar qarshisida qolur lol” degan iqrar bilan so‘z boshlaydi Nega ba‘zan yaxshi odamdan yomon nom qoladi? Nahotki, dunyoda sobit narsa yo‘q? Nahotki, yetuklikning bus-butun timsoli yo‘q? Nega birovlar quradiyu, birovlar bemalol buzadi? Nega manguilik da‘vosida ko‘krak kergan saltanatlar oddiy tasodifning oddiy hamlasidan kapalak qanotiday uchib ketadi? – shu xil ziddiyatli savollarga javob axtaradi u. Ammo ularga yosh shoirning o‘z javobi bor: odamdan faqat yaxshilik qoladi; insoniyatning dardiga darmon bo‘lganlar, insoniyat kamoloti uchun kurashganlarning nomigina manguilikka doxildir. Sulton Ulug‘bek oddiy qulboboday qilichga bo‘yin eggan bo‘lsa-da, avlodlar yodida qayta tirildi. Tarix siymu zarlar sohibi bo‘lgan xo‘jasining emas, juldur kiyingan oddiy masalnavis Ezopning nomini o‘z sahifalarida saqlab qoldi... Xuddi shunday fikr-mulohazalar so‘ngida “Mazlumlar haqsizlik changalida qolsa, zulmat ichida hayot nurlari ko‘rinmay qolsa, dardini kimga aytardi?” qabilidagi savol qo‘yiladi va “Leninga” deya javob beriladi. She‘r yozilgan tarix manzarasida bunday javobning hech bir malomatli joyi yo‘q. Umuman olganda, kommunizm – nazariy jihatdan sinfiy tengsizlikka barham berish, inson haqlarining ustuvorligi, millatlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi, e‘tiqod erkinligi kabi jozibador g‘oyalar majmuidan iborat edi. Biroq amalda diktatura, ta‘qib va tazyiq, shaxsga sig‘inish, terror hukm surar edi.

Abdulla Oripov ham tarixning shu mudhish davrida yashashiga to‘g‘ri kelgan, shu jamiyat tarbiyalagan shaxs sifatida yuksak insoniy ideallarni bayroq qilgan kommunistik mafkuraga qattiq ishongan. Aks holda, “Najot qal‘asi” kabi she‘rlar, “O‘n yettinchi yilgi inqilob / Sen uchun bo‘lgandi bilsang aslida” (“Uy”) kabi satrlar yaratilmagan, mustaqillik yillarida esa shoirning afsus-nadomatga to‘la misralari yozilmagan bo‘lardi. “Men ham o‘sha davr yalovin tutdim, / Ko‘rmagan devimga uraverdim do‘q” (“Hayot saboqlari, 2013”) singari afsusnomalar shoirning istiqloq yillaridagi she‘rlari ichida ko‘p uchraydi. Abdulla Oripov fikrlaydigan odam, tafakkuri chuqur ijodkor sifatida jamiyat hayotidagi g‘ayriinsoniyliklarni ko‘rgan-bilgan, inson haqlari toptalayotganini anglab turgan, albatta. “Yuzma-yuz”, “Asrimiz odami”, “Avlodlarga maktub”,

“Tilla baliqcha”, “O‘zbekistonda kuz” kabi qator she‘rlarida ana shunday salbiy hodisalardan so‘z ochgan. Bizningcha, shoir jamiyatdagi soxtakorlik, yolg‘on, zulm, haqsizlarning barchasini avval-boshdan ko‘rgan-bilganu, ularning ildizi tuzumga, hukmron mafkuraga borib taqalishini kechroq anglagan. Milliy istiqloldan keyin esa bir necha she‘rlariga qalam urib, o‘sha adashishlarni tuzatgan. Shuning uchun ham nomi o‘zgargan yuqoridagi she‘rning ostiga “1969–2000” degan sana qayd etilgan. Albatta, muallif toki barhayot ekan, o‘z asarini tahrir qilishi mumkin. Bu – uning qonuniy haqqidir. Lekin xuddi ana shu nuqtada muayyan paradoks ham yuzaga keladi. Gap shundaki, yuqoridagi kabi tahrirlar ijodiy evolyusiya, ijodkor dunyoqarashi masalasida o‘quvchini chalg‘itishi, XX asr o‘zbek adabiyoti misolida “falon shoir yoki yozuvchi tuzumning, mafkuraning nobopligini o‘sha vaqtdayoq bilgan” qabilidagi shoshilinch xulosalarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotchi turli nashrlarni qiyoslab, badiiy asarning ilk variantlarini tiklaydi va shunga ko‘ra tadqiq qiladi, albatta. Ammo oddiy o‘quvchida bunday imkoniyat ham, bunga ehtiyoj ham yo‘q.

Xullas, muallif tahriri adabiyotshunoslikning murakkab va nozik masalalaridan biridir. Shoir yoki yozuvchi o‘zi biror qayd yoki izoh qoldirmasa, qalam urilgan o‘rinlarni ko‘pincha badiiy matnni mukammallashtirish istagi deb talqin qilishga to‘g‘ri keladi; lekin bu qayd-u izoh ham hamma vaqt rost bo‘lmashligi mumkin. Senzuradan himoyalaniish, o‘z xatosini “yopish”, oldin yozilgan asarni biror sanaga muvofiqlashtirish kabi obyektiv va subyektiv omillar ham bor. Muallif tahriri asl haqiqatni yuzaga chiqarishi ham, uni tarix bag‘riga ko‘mib yuborishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – B.62.
2. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. 2-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – B.62.
3. Ostrovskiy A. Russkiye pisateli o literaturnom trude. – L., 1954. – S.558.
4. Gegel G.V.F. Sochineniya. T.XII. – M., 1938. – S.286.
5. Imomnazarov M. Milliy ma‘naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – Toshkent: Sharq, 1998. – B.168.
6. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000. – 28-b.
7. Oripov A. Tanlangan asarlar. 2-j. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2001. – 37-b.
8. G‘aniyev I., Afoqova N. Abdulla Orif falsafasi. – Toshkent, Muharrir, 2021 308 -bet